

YOSHILAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazeta

#43 (16697)
2025-yil 29-oktabr, chorshanba

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi

 /yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqa boshlagan



Xo'jayorovlar oilasi, "Yosh kitobxon oila" tanlovi Toshkent shahri bosqichi ishtirokchilari

Foto: Mumtozbegin ABDUMOMIN

KITOBXON YOSH OILALAR

“Yosh kitobxon oila” tanlovining Toshkent shahri bosqichida Sergeli tumanidan Sattorovlar oilasi g’oliblikni qo’lga kiritdi.

“Badiiy asarlar bilimdoni” va “Tezkor savol-javob” shartlari asosida o’tkazilgan bellashuvlarda yosh oila a’zolarining hamjihatligi, zukkoligi muhim omil bo’ldi.

Poytaxtning 12 tumanidan kelgan eng kitobsevar oilalardan Jo’rayevlar (Yashnobod) 2-o’rin, Obidjonovlar (Yakkasaroy) 3-o’ringa loyiq deb topildi.

Sattorovlar oilasi tanlov finaliga yo’llanma, qolgan ishtirokchi va sovrindorlar munosib sovg’alar bilan taqdirlandi.

YOSHILAR OVOZI

MEN RADIKALIZMGA QARSHIMAN

tanlovi

O'qiblar! O'qiblar! Tanlovi!

MEN

RADIKALIZMGA QARSHIMAN

Yoshlar ishlari agentligi shu yil avgust oyida e'lon qilgan onlayn tanlovga ikki oy davomida 300 ga yaqin ijodiy ishlar yuborilgan. Ekspertlar guruhi ishtirokchilarning ishlarini ijodiy yondashuv, g'oya yoritilishi va ijtimoiy ahamiyati bo'yicha baholadi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, quyidagi ishtirokchilar g'olib va sovrindorlar safidan joy olgan:

14–18 yosh toifasida (insho):

1-o'rin – Shohruh Mirzaulug'ov (Qashqadaryo);

2-o'rin – Sarvara Boymurodova (Navoiy);

3-o'rin – Dilbar Naimova (Navoiy).

19–30 yosh toifasida (video-rolilik):

1-o'rin – Gulnoza Xolmurodova (Toshkent sh.);

2-o'rin – Javohirbek Hamroyev (Qashqadaryo);

3-o'rin – Fayozbek Adahamov (Andijon).

G'oliblar diplom, noutbuk, planшет va televizor bilan taqdirlanadi.

YOSHILAR OVOZI

LABINTOD

YO'QOLAYOTGAN HAQIQAT

YOXUD FIKRLAR FAKTGA AYLANAYOTGAN DAVR

AN'ANAVIY OAV VA ANIQLIK DAVRI

INTERNET DAVRI VA AXBOROT OQIMI

Bir paytlar yangiliklarni tushunish ancha oson edi. Gazeta, radio va televideniye odatda aniq, ishonchli manbalarga tayanib, obyektiv faktlarni subyektivlaridan qat'iy ajratib, saralab bergan. Axborot siyosati qat'iy edi: xabar – fakt, tahlil esa fikr. Shu bois o'quvchi yoki tomoshabin nimaga ishonish va nimani shunchaki mulohaza sifatida qabul qilish kerakligini oson anglab olgan.

Masalan, gazetada “tahririy maqola” (editorial) “muallif fikri” (op-ed) yoki “sharh” (“commentary”) kabi ruknlar mavjud edi. Bu ruknlar orqali jurnalist o'z fikrini ochiq bildirar, ammo bu xabar emas, tahliliy yoki subyektiv material ekanini o'quvchi yaxshi bilardi.

So'nggi yigirma yil ichida internetning jadal rivojlanishi bilan bu aniq chiziqli tobora xiralasha boshladi. Bugun har kim: professional jurnalist bo'ladimi, oddiy foydalanuvchimi, ijtimoiy tarmoqda o'z fikrini ommaga yetkaza oladi. Natijada “axborot ishlab chiqaruvchilar” soni millionlab ketdi.

Endilikda “editorial” yoki “oped” kabi atamalar deyarli yo'qolgan. Ko'plab bloglar, veb saytlar, YouTube kanallari yoki TikTok sahifalari o'z fikrlarini “yangilik” sifatida taqdim etadi. Bu holatda esa auditoriya nima fakt, nima fikr ekanini ajratolmay qolmoqda. Bundan tashqari, internetdagi kontentni nazorat qiluvchi yagona tizim yoki mexanizm mavjud emas. Hamma xohlagancha fikr bildiradi, lekin bu fikr faktmi yoki shunchaki taxmin – bunga hech kim javobgar emas.

IQLIM UCHUN BIRLASHUV

SAMARQAND GLOBAL MULOQOT MARKAZIDA

3-bet



27-28-oktabr kunlari Samarqand shahrida o'tkazilgan 14-UNESCO Yoshlar Forumida 140 dan ortiq mam-lakatdan yosh yetakchilar “Iqlim harakati va uning ijtimoiy ta'siri, ayniqsa yoshlar uchun” mavzusida doirasida muhokama olib bordi.

UNESCO va O'zbekiston hukumati hamkorligida tashkil etilgan forumdan maqsad – yoshlarning iqlim siyosatidagi amaliy ishtirokini kuchaytirish, tashabbuslarini global kun tartibiga kiritish.

Iqlim o'zgarishi faqat siyosiy emas, ijtimoiy va ma'naviy masalaga aylangan. Yosh delegatlar bu forumda inson kelajak-taqdirini muhokama qildi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, har 10 yoshdan 8 nafari iqlim o'zgarishidan xavotirda, bu xavotir O'zbekiston kabi iqlim o'zgarishi yanada keskin hududlardagi yoshlarda karrasiga kuchli.

Forum oldidan ishtirokchilar Reston maydoni bo'ylab sayohat qildi. Bu sayr turli xalqlar yoshlarini madaniyat, san'at va tinchlik atrofida birlashtirgan muloqot bo'ldi. Kun yakunida “Bag'rikenglik kemasi” nomli konsert iqlim mavzusini estetik, hissiy tilda ifodaladi. Bunday yondashuv O'zbekistonning “madaniyat orqali diplomatiya” modelining amaliy isbotidir.

Nufuzli tadbirning ochilish marosimida Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev so'zga chiqib, yoshlarning global muammolar yechimida faol ishtiroki va ularning ovozi xalqaro miqyosda eshitilayotganini ta'kidladi. UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi raisi, Bangladesh vakili Xondker Mohammad Talxa esa O'zbekistonni yoshlarning ovozini eshitish uchun ochiq maydon yaratgan davlat sifatida e'tirof etdi.

BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI “YASHIL IQTISODIYOT” BIZGA SUV VA HAVODEK ZARUR

2-bet



Sanoat, transport, energetika kabi tarmoqlar rivoji iqtisodiy samaradorlikni oshirayotgan bo'lsa-da, ko'plab ekologik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlar, yer va suv resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik ba'zan bir-biriga zid tushunchalar sifatida ko'riladi. Shu sababli ularning uyg'unligini ta'minlash zamonaviy global siyosat va iqtisodiyotning muhim yo'nalishiga aylangan. Bu jarayonda xalqaro ekologik standartlar va rivojlangan davlatlar tajribasi muhim hisoblanadi.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDG) ichida arzon va toza energiya, iqlim bo'yicha chora-tadbirlar hamda barqaror infratuzilma alohida o'rin tutadi. Markaziy Osiyo davlatlari tabiiy resurslarga boy bo'lishiga qaramay, energiya transformatsiyasi va yashil iqtisodiyotga o'tishda qator muammolarga duch kelmoqda.

MALIKA AMANNISAXON

TURKIY XALQLAR TARIXIDAN MUNGLI BIR QISSA

4-bet

2025-yil boshidan mamlakatimizda yoshlar ishtirokida 7 ming 600 dan ortiq ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilgan. Bu yoshlar siyosati amaliy tus olganini ko'rsatadi. Jumladan:

“Rahbar va yoshlar”

• 495 ta uchrashuv;

• 42 ming ishtirokchi;

• +3 ming masala ko'rilgan;

• 89% hal etilgan.

“Hokim va yoshlar”

• 7 ming muloqot;

• 258 ming ishtirokchi;

• +24 ming masala ko'rilgan;

• 90% hal etilgan.

7 600 OCHIQ MULOQOT		
2025-yil boshidan mamlakatimizda yoshlar ishtirokida 7 ming 600 dan ortiq ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilgan. Bu yoshlar siyosati amaliy tus olganini ko'rsatadi. Jumladan:	“Rahbar va yoshlar” • 495 ta uchrashuv; • 42 ming ishtirokchi; • +3 ming masala ko'rilgan; • 89% hal etilgan.	“Hokim va yoshlar” • 7 ming muloqot; • 258 ming ishtirokchi; • +24 ming masala ko'rilgan; • 90% hal etilgan.



Xabar berganimizdek, 23-oktabr kuni Toshkent shahridagi Yoshlar ijod saroyida “Yoshlarni eshitamiz” shiori ostida fuqarolik jamiyati instituti vakillari hamda yosh volontyorlar bilan navbatdagi ochiq muloqot boʻlib oʻtdi.

Muloqotda yoshlar bilan bevosita fikr almashilib, ularning tashabbus va takliflari tinglandi, dolzarb masalalarga yechimlar topildi. Davlat organlari bilan fuqarolik jamiyati institutlari oʻrtasida hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, ularni jamiyatdagi islohotlar jarayoniga kengroq jalb etish lozimligi taʼkidlandi.

“Piyodachi” MOLIYALASHTIRILADI YOSHLARNI ESHITAMIZ

BU HAQDA YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOTDA MA'LUM QILINDI

Ochiq muloqotda Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev “Yashil tashabbuslar” jamg'armasidan moliyalashtiriladigan ilk loyihalardan biri sifatida “Piyodachi” ekoblogi tanlangani haqida ma'lum qildi. Loyiha muallifi Javohir Aliqulov Instagram tarmog'ida atrof-muhitni toza saqlashga targ'ib qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish va ekovolontyorlikni

ommalashtirishga qaratilgan tashabbuslari bilan e'tibor qozongan.

Eslatib o'tamiz, hukumat qarori bilan “O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Yashil” tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida”gi nizom tasdiqlangan. Jamg'arma agentlik huzuridagi Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga ajratiladigan mab-

lag'lar va boshqa manbalar hisobidan har yili 10 milliard so'mgacha miqdorda shakllantiriladi. Bu mablag'lar yoshlarning tabiatga mehrini kuchaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash hamda yashil energiya manbalaridan foydalanishga oid tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash uchun yo'naltiriladi.

Kun mavzusi

BARQAROR RIVOJLANISH YO'LI



“YASHIL IQTISODIYOT” BIZGA SUV VA HAVODEK ZARUR

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Xususan, O'zbekiston sanoatlashuv, infratuzilma qurilishi, transport sohaslarida katta o'sishga erishyapti. Biroq atrof-muhitga sezilarli darajada zarar yetkazilmoqda. Sanoat korxonalarida YIM tarkibining muhim qismini tashkil etadi. 2023-yil yakuniga ko'ra, sanoat ishlab chiqarish hajmi 15 foizdan ortiq o'sdi. Ammo bu korxonalarining aksariyati eskirgan texnologiyalarga asoslangan bo'lib, chiqindilarni to'liq filtrlash yoki utilitatsiya qilish tizimlari yetarli emas.

Barqaror rivojlanish uch asosiy ustunga tayyad: iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va ekologik muvozanat. Energetika transformatsiyasi bu uch vazifani uyg'unlashtirishda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda barqaror rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan omillar:

- eskirgan energetika infratuzilmasi;
- yuqori karbon chiqindilari;
- suv tanqisligi va Orol dengizi fojiasi;
- energiya samaradorligining pastligi.

Mamlakatimizda bu sohani tartibga solish uchun muntazam chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Davlatning jahon hamjamiyati oldidagi majburiyatlarini bajarishda tarmoq va sohalarning uyg'un “yashil transformatsiya”si, raqobatbardoshligi va resurs tejamkorligini ta'minlash, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish, aholining yashash sifatini yaxshilash hamda iqtisodiy o'sishning yangi



“yashil rivojlanish” modeliga o'tish maqsadida 2025-yil 30-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasi, “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” PF–16-son farmoni qabul qilingan.

Mazkur hujjatlar ijrosi natijasida “yashil tadbirkorlik” rivojlanadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi, ekologik toza mahsulot va xizmatlar bozori kengayadi; resurslardan samarali foydalanish va energiya samaradorligini oshirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, ekologik innovatsiyalar va raqamli yechimlar orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va barqarorligi oshadi, atrof-muhit sofligi oshib, aholining sog'ligi va turmush darajasi ko'tariladi; “yashil texnologiyalar” sohasida yangi startap va innovatsion bizneslar paydo bo'ladi. Natijada xalqaro standartlarga moslashish orqali O'zbekiston mahsulotlarining eksport salohiyati oshadi.

Ammo hali sohada xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish zarurati bor. Jumladan, 2023-yil holatiga mamlakatdagi atigi 3 foiz “yashil biznes” subyektlari xalqaro ekologik sertifikatlariga ega bo'lgan. Bu ko'rsatkichni yaxshilash uchun kompleks yondashuvga ehtiyoj mavjud. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ekologik mahsulotlarni eksport qilish salohiyati yuqori bo'lgan korxonalarining faqat 15 foizi xalqaro standartlarga mos keladi, bu ekologik sifatini oshirish va resurstejamkor texnologiyalarga yo'naltirilgan dasturlar zarurligini ko'rsatadi.

Feruza RAHMATOVA,
TDSHu talabasi



500 MLN DAROMAD

2025-yilda yetakchi quyidagi aniq natijalarga erishdi:

7 nafar yoshga dehqonchilik uchun 30 yil muddatga yer ajratildi;

20 nafar yosh rasman band qilindi;

12 nafar yosh xususiy sektorga, 8 nafari ustoz-shogird an'anasi bo'yicha mahalladagi chevarlarga birlashtirildi;

2 nafar yoshning kontrakt to'lovlariga amaliy yordam ko'rsatildi;

34 nafar yosh o'zini o'zi band qildi;

4 nafar yoshga jami 175 million so'm kredit ajratildi;

viloyat Monomarkazida 20 nafar yosh kasbga yo'naltirildi;

hokim yordamchisi tavsiyasi bilan 7 nafar yoshga kredit ajratildi;

3 nafar yosh tadbirkorlik faoliyatini boshladi.

O'tgan yili 149 nafar yoshga yer ajratilgan edi. Bu yil ulardan 100 nafari “bir kontur – bir mahsulot” tamoyili asosida 20 gektar yerga loviya ekdi. Yozgi mavsumda 300 million so'mdan ortiq daromad olishdi, kuzgi mavsumdagi daromad 200 million so'mdan oshishi kutilmoqda.

XONARIQ MAHALLASI BALANSI:

Aholi:
4294 nafar;
Yoshlar:
1003 nafar;
Ayol-qizlar:
2051 nafar.

– Biz birinchi navbatda yoshlarning ishonchini qozonishga harakat qildik, – deydi yoshlar yetakchisi. – Agar yoshlar o'zlariga ishonmasa kredit, yer yoki tayyor kasbni taklif qilish natija bermaydi. Shu sabab yoshlar bilan ochiq suhbat, tashabbuslarni birgalikda rejalashtirishni yo'lga qo'ydim. Bugun yerdan daromad olayotgan, kichik bo'lsa-da o'z tadbirkorligini yo'lga qo'yan yoshlarni ko'rib, ularning yutuqlaridan ilhomlanaman. Avvallari bozor iqtisodiyoti ularga begona bo'lib tuyulgan bo'lsa, hozir o'z mahsulotini sotish, reja tuzish, xarajat va foydani hisoblashni biladi. Demak, yoshlarning o'z kuchiga ishonishga sharoit yaratish natijaga eladigan yo'ldir.

Yosh tadbirkorlardan biri Gulsanam Ne'matovaga 67 million so'm kredit ajratilib, pishiriq sexi ochishga yordam berildi. Hozir u mahalliy do'konlarni mahsulot bilan ta'minlamoqda.

– Yoshlar yetakchisi yordami bilan olingan kredit texnika, xomashyo va birinchi oylik ish haqi xarajatlarga yordam berdi. Endi men kichik bir biznes egasiman. Bu orqali 4 ta ish o'rni yaratdim. Faoliyatimni kengaytirib, mahsulotlarimni tuman markaziga ham chiqarish istagidaman, – deydi Gulsanam Ne'matova.

Chekka hududda katta o'zgarish

QIYINCHILIK VA CHEKLOVLAR

Yoshlar yetakchisi hamma ish mukammal emasligi, mahalla darajasidagi tashabbuslar bilan ishlashda bir qancha cheklovlar mavjudligi haqida gapiradi. Xususan, kredit ajratish muhim vosita bo'lsa-da, kichik tarmoqlar uchun foizlar, bozordagi narxlarning o'zgarishi yoki kutilmagan xarajatlar tadbirkorni qiyin ahvonga solib qo'yishi mumkin. Hosilni sotish va bozorga chiqarish masalalarida doimiy amaliy yordam talab etiladi. Mahallaga yaqin hududlarda bozorga doimiy chiqish imkoni yo'q bo'lsa, hosilni saqlash va narx pasayishi muammosi yuzaga keladi.



Bundan tashqari, chekka hududda infratuzilma yetishmasligi jarayonlarni sekinlashtiradi. Ko'p yoshlar nazariy bilimga ega bo'lgan mahalladagi, lekin amaliy kasb-ko'nikma yetarli emas. Shuning uchun doimiy kasbga yo'naltirish va qo'llab-quvvatlash talab qilinadi.

– Biz juda ko'p yutuqlarga erishdik, lekin hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar ham yetarli. Ayniqsa, infratuzilma va bozor masalalari viloyat darajasida hamkorlikni talab qiladi, – deydi yetakchi

MONOMARKAZDAGI
USTOZLAR BILAN
HAMKORLIKNI
KENGAYTIRIB, O'QUV
DASTURLARINI HUDUDGA
MOSLASHTIRISH LOZIM

K – Kambag'allikning ildizi faqat moddiy yetishmovchilikda emas, imkoniyat yetishmaschiligi va maqsad yo'qligida, – deydi Ma'mura Turdaliyeva. – Shuning uchun biz yoshlar bilan ishlashni “bir martalik yordam”dan emas, ularni o'zini o'zi ta'minlay olish darajasiga olib chiqishdan boshladik. Har bir yigit-qizning nimaga qiziqishi, qanday kasbga moyilligi, oilasining sharoiti va imkoniyati bor yoki yo'qligini batafsil o'rgandik. Men uchun eng muhimi – yoshning o'zi qadam-baqadam oldinga yurishga tayyor bo'lishi. Aks holda berilgan imkoniyat zanjirga aylanmaydi, balki vaqtinchalik yordam bo'lib qoladi. Shu bois “bandlik – kasb – daromad – mustahkamlik” tizimini ichki mexanizm sifatida joriy etdik.



YECHIMLAR HAM BOR!

Ma'mura Turdaliyeva mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, faoliyatini yana yaxshilash maqsadida bir nechta yechimlar ustida ishlayapti. U dastlab bozor tarmoqlarini mustahkamlamoqchi. Hosilni saqlash, qayta ishlash va bozorga chiqarish uchun kichik saqlash xonalari qurish investitsiya talab etadi. Buning uchun viloyat darajasida ushbu infratuzilmani moliyalashtirish va mahalliy hamkorlik rejalarini ishlab chiqish zarur.

Kredit olish bir bosqich, uni to'g'ri boshqarish yana bir muhim bosqich. Ma'mura iqtisodiy bilimlar berish maqsadida yosh tadbirkorlar uchun moliyaviy boshqaruv, soliqqa doir bilimlar va biznes reja yozish bo'yicha doimiy o'quv seminarlarini tashkil etishni maqsad qilgan.

Shuningdek, kasbga yo'naltirish va ustoz-shogird tizimini kuchaytirish, Monomarkazdagi ustozlar bilan hamkorlikni kengaytirib, o'quv dasturlarini hududga moslashtirish lozim.

Ma'muraning agroiqlimiy izlanishlarini viloyat ilmiy markazlari bilan birgalikda amaliy tajribalarga aylantirish, yangi texnologiyalar va biologik usullarni sinovdan o'tkazish zarur. Bu hosildorlik va daromadni oshirishga xizmat qiladi.

Xonariq tajribasidan ko'rinadiki, tizimli yondashuv, ijtimoiy loyihalar orqali chekka hududlarda ham iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga erishsa bo'ladi.

YOZGI MAVSUMDA 300
MILLION SO'MDAN ORTIQ
DAROMAD OLINDI, KUZDA
DAROMAD 200 MILLION
SO'MDAN OSHISHI
KUTILMOQDA.



MASHRAB- XONNING MAHALLAGA HADYASI

Mahalla yoshlaridan Mohlaroy Do'smatova 2025-yilda “Besh tashabbus olimpiadasi”da milliy kurash bo'yicha hudud bosqichida 1-o'rinni egallab, respublika bosqichiga yo'llanma olgan. 2023-yilda esa Mashrabxon Anorova yengil atletika bo'yicha respublikada 2-o'rinni olib, mahallada universal sport maydonchasi qurilishiga hissa qo'shgan.

Mahalladagi madaniyat markazida 4 ta to'g'arak ochilib, jami 126 nafar yosh qamrab olingan. Yetakchi tashabbusi bilan mahalla hududidagi qarovsiz yotgan bino ta'mirlanib, sport to'g'araklari faoliyati yo'lga qo'yilgan.



LABIRINT

YO‘QOLAYOTGAN HAQIQAT

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

YOXUD FIKRLAR FAKTGA AYLANAYOTGAN DAVR


SHAXSIY FIKRNING FOYDASI

Shaxsiy fikrni bildirish yomon narsa emas. Aksincha, jamiyat uchun turli nuqtayi nazarlar muhim. Fikrlar orqali biz masalalarni yangi kontekstdan ko‘ramiz, o‘z qarashlarimizni qayta baholaymiz. Tarixda ham bunday holatlar bo‘lgan. Masalan, 1968-yilda mashhur amerikalik teleboshlovchi Uolter Kronkayt Vetnam urushi haqidagi shaxsiy fikrlarini bildirganida jamiyatda keng muhokamalarga sabab bo‘lgan. U o‘z chiqishida “Muxbir uchun tobora ayon bo‘layotgan haqiqat shundan iboratki, yagona oqilona yo‘l – g‘alaba qozongan taraf sifatida emas, balki demokratiyani himoya qilish majburiyatini bajargan va qo‘lidan kelganini qilgan sharaflı xalq sifatida muzokara yo‘lini tanlashdir” degan fikrni ilgari surgan.

Bunday misollar fikr bildirishning demokratik jamiyat uchun ahamiyatini ko‘rsatadi: fikrlar muhokama tug‘diradi, muhokama esa o‘shish va o‘zgarish uchun zamin yaratadi.

CHEGARALAR YO‘QOLDI...

Shunga qaramay, bugungi axborot makonida fikr va fakt o‘rtasidagi farq tobora yo‘qolib bormoqda. Ko‘plab kontent yaratuvchilar o‘z qarashlarini fakt shaklida taqdim etadi, ularni statistik ma‘lumotlar, soxta taqdimotlar yoki izohsiz grafikalar aralashtirib beradi. Bu esa foydalanuvchining ishonchini qozonish uchun ishlatiladigan manipulyatsiya vositasidir.



Masalan, ayrim bloglar yoki ijtimoiy tarmoq akkauntlari o‘z auditoriyasini his-tuyg‘ular orqali jalb etadi: g‘azab, qo‘rquv yoki shubha uyg‘otuvchi sarlavhalar (clickbait) yaratadi. Ular o‘quvchini uzoqroq ushlab turish, ko‘proq reklama ko‘rsatish yoki siyosiy maqsadlarga erishish uchun fikrni fakt shaklida “sotadi”.

ODAMLAR NEGA CHALG‘IYDI?

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, inson miyasi ko‘pincha mantiqqa emas, hissiyotlarga asoslanadi. Pew Research Center o‘tkazgan tajribada ishtirokchilarga 10 ta bayonot (5 tasi fakt, 5 tasi fikr) berilgan. Natijada 5000 nafar respondentdan atigi 26 foizi barcha faktlarni to‘g‘ri aniqlagan, 35 foizi esa barcha fikrlarni ajrata olgan.

Bu shuni anglatadiki, aksariyat odamlar o‘z e‘tiqodiga mos fikrlarni fakt sifatida qabul qilishga moyil. Masalan, kimdir o‘z siyosiy qarashiga mos yangilikni haqiqat deb o‘ylaydi, garchi u subyektiv tahlil bo‘lsa ham. Shu tariqa fakt va fikr o‘rtasidagi chegara nafaqat OAVda, balki inson tafakkurida ham zaiflashadi.

SUN‘IY INTELEKTNING ROLI

Bugungi kunda yangiliklar oqimini faqat jurnalistlar emas, algoritmlar ham boshqaradi. Ijtimoiy tarmoqlar sizga yoqqan – “like” bosgan yoki ulashgan kontentlarigizga o‘xshash postlarni sahifangizda ko‘rsatadi. Shu tariqa “axborot pufagi” (filter bubble) shakllanadi – siz faqat o‘z fikringizni tasdiqlaydigan ma‘lumotlarni ko‘rasiz.

Natijada turlicha nuqtayi nazarlar sizdan yiroqlashadi, dunyo manzarasi esa biryoqlama bo‘lib qoladi. Bu jarayonda algoritmlar haqiqatni ajratmaydi, ular faqat sizni ekran qarshisida uzoqroq ushlab turishni maqsad qiladi.

FAKT VA FIKRNI AJRATISH

Fakt va fikr o‘rtasidagi chegara o‘z-o‘zidan ravshanlashmaydi, ammo bu sizning tanqidiy fikrlash qobiliyatingizga bog‘liq. Quyidagi amaliy tavsiyalar foydali bo‘lishi mumkin:

Manbani tekshiring. Maqola yoki videoni kim tayyorlagan? Bu nashr yoki shaxs ishonchli manba sifatida tanilganmi?

Dalilni izlang. Maqolada keltirilgan ma‘lumotlar manbalar bilan mustahkamlanganmi? Faktlarni mustaqil tashkilotlar tasdiqlaganmi?

Tilga e‘tibor bering. Hissiyotlarga yo‘naltirilgan so‘zlar: “shok”, “fosh etildi”, “g‘azablanarli” kabi iboralar odatda fikrning ustunligini bildiradi.

Muallifning maqsadini tushuning. U axborot berishni xohlayaptimi yoki sizni ishonтирамоqchimi?

Tashqi tekshiruvdan foydalaning. Faktcheking platformalari, masalan, Snopes, PolitiFact yoki mahalliy fakt tekshirish loyihalari, axborotni tasdiqlashda yordam beradi.

TANQIDIY FIKRLASH – YANGI SAVODXONLIK

Axborot asrida fakt va fikrni farqlay olish endi intellektual qobiliyat emas, balki zarur hayotiy ko‘nikma. OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi qorishiq xabarlar fonda har bir inson axborot oqimida yo‘qolib ketmaslik uchun tanqidiy fikrlashni o‘rganishi kerak.

Endilikda haqiqiy savodxonlik faqatgina o‘qish yoki yozish emas, axborotni tahlil qilish, manbani baholash va manipulyatsiyani anglay bilish hamdir. Fikr va faktni ajratish bizning dunyoni qanday ko‘rishimiz, qanday qarorlar qabul qilishimiz va qanday jamiyatda yashashimizni belgilovchi omildir.

Nurillo TO‘XTASINOV
Toshkent davlat yuridik universiteti “Davlat boshqaruvi” kafedrası o‘qituvchisi

SHOHRUH QUDRATOV – “KELAJAK BUNYODKORI” MUKOFOTI SOHIBI.
YOSH BO‘LISHIGA QARAMAY, KATTA O‘QUV MARKAZINING RAHBARI,
XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHI DEPUTATI, OLIY MAJLIS SENATI HUZURIDAGI YOSHLAR PARLAMENTIDA KOMISSIYA RAISI SIFATIDA FAOLİYAT YURITADI.

“BAKALAVRNI 2 YILDA TUGATGANMAN, OXIRGI YUZ YILDA BUNAQASI BO‘LMAGAN EKAN”



– O‘quv markaziga 2021-yilda asos solganmiz. Germaniyada o‘qib yurgan paytimda bir ilmiy maqolaga duch kelgandim. Unda aytilishicha, yoshlarga chet tillarni o‘rgatish ularning daromadini oshiruvchi asosiy jihat ekan. Albatta, daromad oshganidan so‘ng yoshlarning hayoti ham yaxshi tarafdin o‘zgaradi. Prezidentimiz ham 2021-yilda yoshlarga chet tillarni o‘qitish muhimligi borasida yig‘ilish o‘tkazgandi, o‘shanda-gi fikr-mulohazalardan ilhomlangan holda o‘quv markaziga asos soldik. Bugungi kunda markazda asosan ingliz va nemis tillari o‘qitilaypti. Bir vaqtning o‘zida 4 mingdan oshiqroq o‘quvchi tahsil olaypti.



Shohruh o‘zidek yosh o‘qituvchilar bilan ishlaydi. Ular nafaqat o‘rgatadi, o‘z ustida ishlashni ham kanda qilmaydi. Hatto yaqinda IELTS imtihonida eng yuqori – 9 balni qo‘lga kiritgan o‘qituvchiga o‘quv markazi avtoullov sovg‘a qildi. Bu qahramonimiz boshqaruv mahoratidan, qo‘l ostidagilarning ish sifatini qanday oshirish, ilmini rag‘batlantirish kerakligini yaxshi bilishidan dalolat beradi.

Shohruh Qudratov Germaniyadagi tahsili haqida ham batafsil gapirib berdi:

– Germaniyadagi Viadrina Yevropa universitetida bakalavr bosqichini 2 yilda imtiyozli tugatganman. Bakalavr bosqichi odatda 3-4 yil davom etadi. Lekin men imtihonlarni oldindan a‘lo darajada topshirib bunga erisha oldim. Universitetda yaqin 100 yilda bunaqa ko‘rsatkich bo‘lmagan deb e‘tirof etishgandi. Germaniyada nemis tilida huquq va siyosat yo‘nalishida o‘qiganman. Shundan so‘ng Buyuk Britaniyadagi nufuzli Edinburg universitetida magistraturani tamomladim. O‘sh paytlari bu universitet QS reytingi bo‘yicha jahonda 15-o‘rinda turar edi.

Qahramonimiz aytishicha, u o‘qigan universitetlarda asosan talabanning o‘zidan mas‘uliyat talab qilinadi, darslar qattiq nazorat qilinmaydi.

– Men tahsil olgan bilim yurtlarida natijadorlik to‘liq talabanning o‘ziga bog‘liq. Nazorat kuchli emas, bu vazifani bajaradimgi, bunisi qolib ketmadimi, degan savollar bo‘lmaydi. Xorijda ko‘proq mustaqil bo‘lishga, mustaqil o‘qishga e‘tibor qaratilgan. Talabalar mas‘uliyatni his qilib, o‘zini o‘zi nazorat qila olishi va berilgan topshiriqlarni bajarishi zarur. Qisqa qilib aytganda, erkinlik mavjud va qolgani talabanning o‘ziga havola.

Shuningdek, Shohruh “Kelajak bunyodkori” medalini qo‘lga kiritganidagi taassurotlari bilan ham o‘rtoqlashdi:

– Mukofotni shaxsan Prezidentimizning qo‘llaridan olish bir tarafdin yoqimli bo‘lgan, ikkinchi tomondan juda katta mas‘uliyat yukladi. Yoshlarning ilm olib, rivojlanishi uchun bor kuchim bilan harakat qilishim shartligini his qildim. O‘sha kundan beri bu eng katta maqsadlarimdan biriga aylandi.

MA‘RIFAT ULASHIB



Yosh avlodni bar-kamol, erkin fikrli va o‘zligini anglagan inson sifatida tarbiyalash har bir ma‘rifatparvar jamiyatning ustuvor vazifasidir. Shu maqsad yo‘lida yurtimizda boshlangan “Ma‘rifat ulashib” loyihasi yoshlarning intellektual va ma‘naviy dunyoqarashini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Yaqinda mazkur loyiha doirasida Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filialida adabiyot idosmandlari ishtirokida uchrashuv o‘tkazildi. Suhbatda o‘zbek adabiyoti vakillari shoir Minhojiddin Mirzo, Oygul Suyundiqova hamda Nargiza Asadovalar ishtirok etdi. Minhujiddin Mirzoning teran ma‘noli she‘rlari yoshlarga ilhom ulashdi, Oygul Suyundiqovanning hayotiy mulohazalari fikr sabog‘ini berdi, Nargiza Asadovanning ayol nihohi bilan keltirgan fikrlari tadbirga joziba berdi.

Bu ma‘rifat uchquni faqat universitet doirasida cheklanib qolmadi. Qibray tumanidagi 25- va



26-sonli umumta‘lim maktablari hamda Bunyodkor mahallasida davom etgan uchrashuvlar yoshlar qalbida yangi ufqlarni ochdi, deiyish mumkin.

Bugungi axborot oqimi, texnologiyalar shiddati va tezkor muvozoqlar davrida teran ma‘naviy suhbatlarga ehtiyoj yanada oshirdan. Ko‘ngil bo‘shlig‘ini to‘ldiradigan, ruhga mustahkam tayanch beradigan eng ulug‘ kuch esa so‘z, ijod va ma‘rifatdir.

Bir she‘r qalbni uyg‘otsa, bir suhbat insonning dunyoqarashini o‘zgartirsa, bir kitob yosh avlodning ma‘naviy kamolotiga hissa qo‘sha olsa, “Ma‘rifat ulashib” loyihasi o‘z maqsadiga erishgan bo‘ladi.

Ruxsora NURMATOVA,

Astraxan davlat texnika universitetining Toshkent viloyatidagi filiali yoshlar yetakchisi

MILLIY DIKTANT

21-oktabr – O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan Ilm-fan va ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish “Ziyo Forum” fondi Yoshlar markazida “Milliy diktant” loyihasining birinchi mavsumini o‘tkazdi. Tadbirda 40 ga yaqin yoshlar katta ishtiroq bilan ishtirok etdi.

– “Milliy diktant” yoshlar qalbida ona tiliga mehr uyg‘otuvchi loyiha, – deydi “Ziyo Forum” fondi direktori Bobur Farnonov. – Chunki bu tashabbus faqat imlo savodxonligini tekshirish emas, balki tilga hurmatni, milliy o‘zlikni anglashni, tarixiy-madaniy ildizlarga qaytishni targ‘ib etadi. Diktant jarayonida yoshlar o‘z ona tilining ohangi, ifoda imkoniyatlari va ma‘naviy zaminini yana bir bor his qiladi. Eng asosiysi ularni matnni to‘g‘ri yozishga emas, tilni to‘g‘ri his qilishga undaydi.

Eng faol va muvaffaqiyatli ishtirokchilar maxsus sovg‘alar, yozuv anjomlari to‘plami va sertifikatlar bilan taqdirlandi. Tadbir yakunida loyihani doimiy ravishda, har chorakda o‘tkazish taklifi ilgari surilib, qo‘llab-quvvatlandi.

Yakuniy natijalarga ko‘ra, “Milliy diktant” loyihasining birinchi mavsumida Nigoraxon Najmiddinova birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni Firuza Nurmaxmatova hamda Nafisa Shokirova egalladi.

Sirojiddin BOZOROV,
“Ziyo Forum” fondi axborot xizmati rahbari

ADABIYOT – TAFAKKUR DARSILIGI



Foto: Abdug‘ani Juma, “Yoshlik” jurnal arxividan

Insoniyat tafakkurining eng yuksak ifodasi adabiyotdir. Adabiyot insonni o‘ylashga, his etishga, anglashga va o‘zini tarbiyalashga o‘rgatadi. U hayotni faqat tasvirlamaydi, balki uni tahlil qiladi, tozalaydi, ma‘noga to‘ldiradi. Atoqli olim Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek, “adabiyot – tafakkur maydoni, u insonni o‘ylashga, o‘zini anglashga, hayot oldidagi javobgarligini his etishga o‘rgatadi”.

Ushbu fikr adabiyotning inson tafakkurini shakllantiruvchi qudratini chuqur ifodalaydi. Umuman, o‘zbek adabiy tanqidchiligi maktabining yirik vakili Ozod Sharafiddinovning adabiyot haqidagi fikrlari yosh avlod uchun juda ham ibratlidir. Adabiyot o‘quvchini tayyor bilim emas, balki o‘z fikrini yaratishga, voqelikni mustaqil tahlil etishga undaydi. Shu sababli har bir asar o‘zigaxos darslikdir. U bizgainsan ruhining murakkabligini, hayotning ko‘p qirraliligini o‘rgatadi. Adabiyot nafaqat aqlni, balki qalbni ham tarbiyalaydi. U mehr, sadoqat, vijdon, halollik, jasorat kabi tuyg‘ularni shakllantiradi.

Sharafiddinov domla yozadiki, “Kitob o‘qish men uchun ovqat yeyish, suv ichish, ishlashdek zaruratga aylangan”. Bu nafaqat shaxsiy odat, balki hayot falsafasidir, ya’ni insonni shakllantiruvchi, ruhiy kamolotga yetaklovchi jarayon.

Olimning qaydlaridan anglash mumkinki, adabiyot insonga bevosita tanbeh bermaydi, balki timsollar, obrazlar, holatlar orqali o‘ylashga majbur qiladi. O‘quvchi o‘zini asarda ko‘radi, o‘z xatosini qahramon kechinmalari orqali his etadi. Shu tariqa insonni tarbiyalaydi, ammo bu tarbiya majburiy emas, balki ruhiy ehtiyoj shaklida kechadi. Yozuvchi so‘z bilan dars beradi, lekin bu darsda daftar ham, sinf ham yo‘q – faqat inson qalbi va tafakkuri bor. “Yozuvchi zamonning og‘rig‘ini his qilmasa, u zamonning yuragini yo‘qotadi”, degan edi munaqqid. Bu so‘z yozuvchi mas‘uliyatining eng chuqur ifodasidir.

Adabiyot faqat shaxsni emas, jamiyatni ham tarbiyalaydi. U vijdon mezonı sifatida xalq ruhiyatini ifodalaydi. Badiiy so‘z orqali insoniyat o‘z tarixini, og‘rig‘ini, orzusini saqlaydi. Shuning uchun ham haqiqiy asar muallifnıki emas, xalqni-ki. Ozod Sharafiddinov ta’kidlaganidek: “San‘at asari xalq qalbiga kirganida, u endi muallifnıki emas, xalqnıki bo‘ladi”.

Adabiyot shunchaki san‘at emas, u xalq xotirası, millat tafakkurining ko‘zgusidir. Uning sahifalarida insoniyatning butun ma‘naviy evolyutsiyası mujassam. Har bir davr o‘z adabiyotini, adabiyot davrni yaratadi. Adabiyotning kuchi halolligida, samimiyligida va jasoratida. Inson tafakkuri adabiyot orqali shakllanadi, insoniylik esa badiiy so‘z orqali yuksaladi.

Badiiy kitoblari bizni o‘tmishni eslashga, bugunni anglashga va kelajakni to‘g‘ri qurishga da‘vat etadi. Shu ma’noda adabiyot hayotning eng buyuk maktabi, ruhning o‘z-o‘zini anglash jarayonidir.

Shahzoda HALIMOVA,
O‘zJOKU talabasi

Sarvinoz YALGASHOVA,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

IQLIM UCHUN BIRLASHUV SAMARQAND GLOBAL MULOQOT MARKAZIDA

Forum yakunida bildirilgan takliflar UNESCOning Bosh konferensiyasiga rasmiy tavsiyalar sifatida taqdim etiladi.



Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, forum shunchaki siyosiy yoki protokol doirasida cheklanib qolmadi, unda real muhokama va takliflar ilgari surildi, yoshlar nafaqat tinglovchi, balki tashabbuskor sifatida qatnashdi.

Shu bilan UNESCOning yoshlar bilan ishlash modeli ilk bor Markaziy Osiyo sinovdan o‘tmoqda. Bu O‘zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlash bilan birga mintaqada yoshlar diplomatiyasining yangi bosqichini boshlab beradi. Samarqandda jaranglagan ovozlari dunyoni tutdi: “Iqlim uchun kurash faqat tabiatni emas, insoniyatni saqlashdir”.

SayyorAI,
“Yoshlar ovozi” SI muxbiri

GAZETA O‘QING, DEYMAN!



Tengdoshlarim, hamkasblarimni gazeta o‘qishga da’vat qilib kelaman. Bu sohaga yaqin bo‘lganlar, ustoz ijodkorlar bilan yonma-yon yurgan kishi uchun gazetaning qadri boshqacha, hurmat va yozariga mas’uliyat bilan qaraydi.

2011-yil ko‘klamida “Chust haqiqati” gazetasida “Suv – hayot manbayi” sarlavhasi ostida chiqqan ilk maqolam men uchun katta bir qadam bo‘lgan edi. O’sha paytlar gazeta-jurnallarda material e’lon qilish mas’uliyatli, natijasi esa quvonchli bo‘lard. Gazetalar adadi ham baland – o’n minglab, hatto yuz minglab nusxalarida tarqalardi.

Bugun esa gazeta, tahririyatlar qadri pasaydi – uning qadriini joyiga qo‘ya olmayapmiz. Ba’zi mutaxassislar qo‘lida qo‘sh diplom bo‘la turib, bir sahifa matnni savdli yozolmayotgani, tahrir madaniyatidan uzoqligi achinarli. Gazeta-jurnal fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, tafakkurni charxlaydi, ijtimoiy jarayonlarga befarq bo‘lmaslikka o‘rgatadi.

– Gazeta – inson ma’naviyatini, savodini oshiradigan, eng muhim va ishonchli ma’lumotlarni yetkazadigan manba. Davlat hayotidagi o‘zgarishlardan tortib hudud aholisini qiziqtirayotgan masalalargacha barchasi unda yoritiladi, – deydi “Chust ha-

qiqati” gazetasi bosh muharriri Zamira Mehmonova.

Darhaqiqat, bugun gazetaga qarshi chiqayotganlarning ayrimlari o‘z fikrini madaniyatli tarzda bildirishni o‘rganmagan. Gazeta qo‘polligundag‘allikni ko‘tarmaydi. Unda yozilgan fikr tarixda qoladi.


2022-yilda Do‘rmon ijod uyida bo‘lib o‘tgan “Zomin – 2022” Respublika seminarida ustoz ijodkorlar Ahmadjon Meliboyev va Xurshid Do‘stmuhammadning gazeta haqida aytgan fikrlari hamon qulog‘im ostida jaranglaydi. Ularning ta’kidlashicha, gazetachi mavzu izlaydi, yozadi, tahrir qiladi, ijodiy o‘lishga xizmat qiladi. Bu jarayonning o‘zi ham katta maktab.

Bosma nashrlarning eng katta ustunligi ham mas’uliyat borligidir. Har bir maqola muharrir nazaridan o‘tadi, tahlil-u tahrir ko‘radi.

Haqiqatan, gazeta mutolaasi bor joyda o‘lish bor. Gazeta va kitob o‘qimagan inson fikrlashda sust bo‘lishi, ijtimoiy hayotdan uzoqlashishi tabiiy. Shu sabab oddiy bir o‘quvchi, ijtimoiy faol shaxs sifatida gazeta-jurnal o‘qishga, unga obuna bo‘lib, qo‘llab-quvvatlashga chaqirishdan to‘xtamayman.

Otabek QOBILOV,
Chust tumanidagi Serob mahallasi yoshlar yetakchisi

IJRO INTIZOMI USTUVOR YO‘NALISH



Oliy attestatsiya komissiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 25-iyulda gi “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlashga bag‘ishlangan yig‘ilish o‘tkazildi. Yig‘ilishda Oliy attestatsiya komissiyasi ijro intizomi bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlar, natijalar hamda kelgusidagi rejalar atroflicha muhokama qilindi. OAKda har kuni ijro holati yuzasidan axborot berish tizimi yo‘lga qo‘yilgan, haftalik va oylik natijalar muntazam tahlil qilinmoqda. Joriy yilning to‘qqiz oyida OAK faoliyatiga oid Prezidentning 5 ta farmoni, 2 ta

qaror, 1 ta Vazirlar Mahkamasi qarori, bir xalqaro bitimning ijrosi to‘liq ta’minlandi. Shu jumladan, tegishli ma’lumotlar OAK veb-saytida e’lon qilinib, Adliya vazirligi portallariga joylashtirildi.

Yig‘ilishda OAK faoliyatiga oid tashkiliy o‘zgarishlar tilga olindi. Jumladan, 2025-yilda kibernetika ta’minlash hamda dorivor o‘simliklar yetishtirish va qayta ishlash yo‘nalishlari bo‘yicha PhD darajasini beruvchi yangi ilmiy kengashlar tashkil etilgan, san’at, tibbiyot, iqtisodiyot va fan yo‘nalishlarida nufuzli xorijiy universitetlarda olingan ilmiy darajalar nosertifikatsiya qilingani ta’kidlandi. Joriy yilning uchinchi choragi yakunida 30 dan ortiq xorijiy ilmiy darajalar O‘zbekistonda tan olingan, milliy ilmfan tizimida 10 dan ziyod yangi ixtisosliklar joriy etilgan. Ijodiy yo‘nalishlarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning ilmiy unvonlarini tasdiqlash, yangi o‘quv dasturlari va ilmiy yo‘nalishlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ham samarali ish olib borilgan.

Anjuman so‘ngida hamkor OAV vakillariga esdalik sovg‘alari topshirildi.

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Shahobiddin LUQMON

Mas’ul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat narxide: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

TIL BILIMI

Abduvohid
HAYIT



“Qalin” so‘zi “Devonu lug‘otit-turk”da “qaling” shaklida keltirilgan va shunday izohlangan: “قالتن – qalin, sep. Maqolda shunday kelgan: قالتن بۆرسە كۆز آلپر, كۆرآك بولسا كۆز آلپر. Ma’nosi: qalin bersa, kelinlikka qiz oladi, agar kishi biror narsaga muhtoj bo‘lsa, qimmat (kۆz) bo‘lsa ham o’sha narsani olishga majbur bo‘ladi” (Bu yerda “kۆz” so‘zi ikki ma’noda: dastlab “qiz”, ikkinchi marta “qimmatbaho” ma’nosida ishlatilgan).

Bu so‘z deyarli barcha turkiy til va lahjalarida: “qalyn”, “qalyn” “qalym” kabi shakllarda mavjud bo‘lib, asosan to‘ydan oldin kelin uchun beriladigan muayyan miqdordagi mablag‘ni bildiradi. Ba’zi mutaxassislar qalin ke-

linning tushgan xonadonida bir umr-ga qolishi uchun garov sifatida berilgan to‘lov, degan mantiqdan kelib chiqib, bu so‘z “qolmoq” fe’lidan yasalgan degan farazni ilgari surishgan. Albatta, “qalin” so‘zi “qal” (“qolmoq”), “kelin” esa “kel” o‘zagidan yasalgan, degan qarash jozibali tuyuladi.

Ammo turkshunos olim G. Dyorferga ko‘ra, “qalin” so‘zini “qal” o‘zagi emas, balki qadimda “soliq” ma’nosini bildirgan “qalan” so‘ziga bog‘lash haqiqatga yaqinroq. “Qalan” so‘zi “Qadimgi turk tili so‘zligi”da “dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholidan davlat foydasiga (asosan pul emas, mahsulot shaklida) o‘ndiriladigan asosiy soliq” deb izohlangan. Uyg‘ur

yozuvida bizgacha yetib kelgan qadimgi hujjatlardan birida shunday deyiladi: “Qalan kesip inchu bag‘chilarqa qalan kesmishi yoq” – ma’nosi: “soliq solinganda merosxo‘r bog‘egalaridan soliq olinmaydi”. Chingiziylar davrida hozirgi Eron hududida mavjud bo‘lgan uch soliq (qalan, qubchur, tamg‘a)dan biri ham qalan bo‘lgan. Xususan “Фарҳанги забони тоҷикӣ” shaklida keltirilgan va: “tarixiy so‘z: Shirvon viloyatida mavjud bo‘lgan soliqlardan biri” deb izohlangan.

Shavkat Rahmatullayev ham o‘zining “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da “qalin” so‘zining kelib chiqishi haqida “qadimgi turkiy tilda mavjud bo‘lgan, lekin lug‘atlarda o‘z aksini topmagan “qal” yoki “qali” fe’lidan bo‘lsa kerak”, degan taxminiy xulosa bildiradi. Menimcha, bu farazni ham o‘rganib ko‘rish kerak, agar shunday bo‘lsa, “soliq” ma’nosidagi “qalan” va “qalin” so‘zlari o’sha “qal” o‘zagiga borib taqalishi mumkin. Xullas, “qalin” so‘zi etimologiyasi haqida hozircha aniq bir to‘xtamga kelinmagan.

Yoshlik ilhomlari



BIR SEVGI. BIR OG‘RIQ...

Samarqand, kaftingda bir tarix, Bag‘ringda bir tarix yashirin. Moziyning beshigin tebratib, Qo‘lingda tik adl shamshiri.

Bunda men eshitdim Temurning Jang orti pinhona nolasin. Bunda men ko‘zimga surtaman, Ulug‘bek to‘kkan yosh, jolasin.

Ha, endi ro‘yolar rang-o rang, Bor ko‘ngil yurtining amiri. Ruhimga ko‘rk berar, erk berar Ul Xo‘ja Doniyor ta‘biri.

Qo‘limda ipaklar etar raqs, Ko‘zimga tortilar pardalar. To‘rt tomon men uchun qibla-yu, To‘rt tomon men uchun maqbara.

Ey dunyo, to‘qima ertaklar, Bor umrga yetgulik afsona. Yelkada ko‘tarib Turonni, Ajdodlar yotarlar mardona.

Samarqand, kaftingda bir tarix, Bag‘ringda bir tarix yashirin!

Zarrin tun. Dudlangan nafaslar. Har kecha bir ranglik tamanno. Bir yurak. Bir osmon. Bitta Oy. Bir tilsim. Bir manzil. Bir Xudo.

Muallaq qalqiyyi sinoat, Tomiring chertadi qay navo. Dunyosi bir yon-u, sen bo‘lak, Bir sevgi. Bir og‘riq. Bir Xudo.

Buyuk dard. Olomon sukunat. Sabohga intizor bir safo. Faqat Sen. Faqat she‘r. Faqat sir. O‘rtada bir ko‘prik. Bir Xudo.

SO‘NGXAT


Bitmadi. So‘ngida ko‘zim uyg‘oqmish, Endi ro‘yolanmoq nasiba emas. Endi qadamingni kuzatmish bir-bir To‘rt tomoni qibla kipriklar, abas.

Dunyoning bor baxti vatan etmishdir Nogahon o‘ng yuzim kulgichlarini. Shundanmi, tark etmoq istamas yurak, Nigohing ilingan ilgichlarini.

Nedan so‘z qisqarib borar tobora, Qizg‘anibmi yoki ko‘rsatmas surat? Bir lahza irmoqlar birlashgan chog‘da Men to‘lin umrimga olarman quvvat.

Bu yo‘lda chirog‘ing sinmasin, deymaan...

Zulhayo MINGBOYEVA



ChatGPT

TURKIY XALQLAR TARIXIDAN MUNGLI BIR QISSA

Davomi.
Boshlanishi 1-sahifada.

Rashidiy”da shunday deyilgan: “Abdurashidxonning onasi oddiy odamlar avlodi bo‘lib, xonning xizmatini qilsin, deb uni xonga olib berishadi”.

Ayniqsa, ayrim diniy arboblal xon oilasining yosh malikani mensimasligini to‘liq qo‘llab-quvvatlardi. Ular musiqachilarning kun sayin saroyini egallab olayotganiga, boqimandaligiga, san’atkorlarga ko‘p mablag‘ sarflamayotganiga, yosh malikaning shariat qonunlarini buzayotganiga, ochiq yuz bilan maqomchilar qatori qo‘shiq aytayotganiga urg‘u berishar edi.

Ammo ular sulton Abdurashidxonning qat’iy qarshiligiga uchradi. Sultonning farmoni va yaratib berilgan sharoit tufayli malika ilm-fan, san’at va she’riyat bilan shug‘ullandi, “Devoni Nafisiy”, nag‘machilik va xattotlikka oid “Qalblar sharhi”, ayol-qizlar odobi va xulqiga bag‘ishlangan “Axloqi Jamila” asarlarini yaratdi.

Saroyda yoshlarning maqomlarni ijro qiluvchi va o‘rgatuvchi guruhlar faoliyat olib bordi. Amannisaxonning o‘zi shogirdlari bilan maqom ijrolarida faol qatnashdi. Iqtidorli qizlar uchun xattotlikning nozik sirlari, husnixatning tizimlariga oid darslar tashkil etildi. Ushbu san’atni egallagan mohir usta qizlar malikaning ko‘rsatmasiga ko‘ra adabiyotga, ilm-san’atga bag‘ishlangan noyob qo‘lyozmalarni ko‘chirdilar. Amannisaxonning o‘zi esa nafis va betakror xati bilan xojasi sulton Abdurashidxon, Ayoziy, ustoz Yusuf Qodirxon asarlarini kitobat qildi.

Amannisaxon 1567-yil 34 yoshida farzand ko‘rar chog‘ida jon berdi. Bola tirik qoldi. Uning vafoti xalqi uchun, ilm va san’at uchun katta yo‘qotish bo‘ldi. Abdurashidxon sevikli mahbusasi vafotini ko‘tarolmadi, majnunsifat bo‘lib, ikki yildan so‘ng 1569-yilda firolq azobida dunyoni tark etdi.

Keyinchalik bu tarix Boburning boshqa avlodlari Xurramshoh va Mumtozbeqim taqdirida aks etadi.

Erkin MUSURMONOV,
filogiya fanlari doktori

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O‘zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O‘zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza
ABDULLAYEV

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Shahobiddin LUQMON

Mas’ul muharrir:
Muhammadshukur
MUHAMMADJONOV

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro‘yxatdan o‘tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat narxide: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboa. Korxona manzili: Buyuk Turon ko‘chasi, 41. Indeksar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxida. Buyurtma G-1080, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

